



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARINI 5E MODEL ASOSIDA TASHKIL ETISH UCHUN INNOVATSION METODLAR

**L.B.Irisova**

*Jizzax davlat Pedagogika Universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

*E-mail: [lobarislomova05@gmail.com](mailto:lobarislomova05@gmail.com)*

*Tel: 94 081 38 39*

Ta’lim sohasida ko‘plab o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu albatta yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun amalga oshirilayotgan sa’y harakatlardir. O‘zbekiston – 2030 strategiyasida ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish ustuvor masala qilib qo‘yilgan. Mazkur maqsad boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ham zamonaviy metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan, 5E modeli asosida darslarni tashkil qilish zamonaviy yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Model bolalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydi. Modelning samaradorligi haqida Roger Bybee shunday deydi: “Ushbu model o‘quvchining bilimni faol o‘zlashtirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etadi va ta’limning mantiqiy ketma-ketligini ta’minlaydi”. Bu yondashuv ona tili darslarida ham mavzuni bosqichma-bosqich anglash imkonini beradi.

Demak, boshlang‘ich sinf ona tili darslarini 5E modeli asosida tashkil etish bugungi kundagi ta’lim talablariga to‘liq mos keladi. Ona tili darslarida bu model o‘quvchilarning nutq madaniyati, matn bilan ishlash, Grammatik tushunchalarni anglash va kreativ fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Modelning har bir bosqichi o‘z xarakter xususiyatiga ko‘ra innovatsion metodlar yaratishni talab etadi.

1.Engage (qiziqtirish) bosqichida quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- “Sirli sandiq” – sandiqcha ichida harflar bo‘lib, ular ishtirokida so‘z hosil qilish;
- “Gulkaram” – rangli qog‘ozdan yasalgan gulkaramning har bir bargiga o‘tiladigan mavzuga oid tushunchalar yozib chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilar barglarni ochib, ketma-ket kelgan tushunchalarni birlashtiradilar;
- “Bekinmachoq” – o‘quvchilar sinfga kirishidan oldin o‘tiladigan mavzu nomi (so‘z bo‘lsa harflar, gap bo‘lsa so‘zlar) bir necha kichik qog‘ozlarga yozilib, ayrim stollar tagiga berkitib qo‘yiladi. Bolalar sinfga kirganda o‘qituvchi “qani bolajonlar bekinmachoqda bekingan narsalarni topaylik”- deydi. Shu asnoda mavzu nomi kelib chiqadi.

2.Explore (tadqiq qilish) bosqichida, asosan, guruhli o‘yinlar tashkil qilish mumkin. Masalan,

- rol o‘yinlar;



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



-matn ustida kreativ g‘oya hosil qilish;

- “insert” texnologiyasi

3. Explain (tushuntirish) bosqichida bolalar xulosalarini bayon qiladilar, o‘qituvchi esa ilmiy jihatdan mavzuni izohlar bilan tushuntirib beradi. Bu bosqichda o‘qituvchi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish maqsadida quyidagilardan foydalansa bo‘ladi:

- rang-barang taqdimotlar;

-“B-B-B” jadvali;

- “Qora ko‘zgu”

4. Elaborate (mustahkamlash) bosqichida quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- ijodiy yozma ishlar;

- “sinkveyn” tuzish;

- AKTdan foydalanish.

5. Evaluate (baholash) bosqichi

Baholash jarayoni darsning qay darajada o‘tganini belgilab, olingan bilimning reytingini ko‘rsatib beruvchi jarayon hisoblanadi. Baholash usullari quyidagilar;

- O‘z-o‘zini baholash;

- O‘zaro baholash;

- Reyting kartalari

- Refleksiya (Bugungi o‘rganganlarim)

Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib ikkinchi sinf ona tili darsligining bir mavzusiga dars ishlanma tashkil qilamiz.

**Mavzu: Mening mahallam.**

Fan: Ona tili

Sinf: 2-sinf

Texnologiya: 5E modeli asosida

Engage – qiziqtirish bosqichi (5 daqiqa)

Faoliyat: “Sirli sandiq”

O‘qituvchi stol ustiga yopiq kichkina sandiqcha qo‘yadi, ichida: uycha rasmi, daraxt, do‘konlar rasmi, bolalar rasmi, qariyalar va ota-onalar rasmi bo‘ladi.

O‘qituvchi: “Bu sandiqda hammamiz biladigan, lekin aytmasam topa olmaydigan bir joy bor. Kim topadi?”

O‘quvchilar bittadan rasmlarni chiqarib, taxmin qilishadi.

Ko‘zingizni yuming va tasavvur qiling, uyimizdan chiqyapmiz, qo‘shnilarga salom berdik, bolalar ko‘chada mazza qilib o‘ynayapti, siz qayerdasiz?

O‘quvchilar: Mahallada.

O‘qituvchi aytadi: Mahallada tongda kim ishlaydi?

Mahallani kiz ozoda saqlaydi?

Mahallada bolalar qayerda o‘ynaydi?

Savollarga tezlikda javob berish talab etiladi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



“Mening mahallam bu...” jumlasini bitta so‘z bilan ifodalashadi.

Maqsad: Darsga qiziqtirish va oldingi bilimlarni faollashtirish.

Explore – tadqiq qilish bosqichi (5 daqiqa)

Faoliyat: “Dengiz qutqaruvchilari” o‘yini.

O‘quvchilar qutqaruvchilar rovida bo‘lib, “daraxt, hovli, ko‘cha, qo‘shni, ariq, devor, oila, jirafa, fizika, koinot” so‘zlari dengiz rasmi tushirilgan katta qog‘ozga yopishtiriladi.(4-mashq) Yuqoridagi so‘zlardan mahallaga oidlarini qutqarish so‘raladi. Ijro so‘ngida “Biz qutqardik...” jumlasini davom ettirib, so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qish so‘raladi. (shu tariqa 2-mashq bajariladi.)

Maqsad: mustaqil tahlil va bilimlarni oldindan bilish.

Explain – tushuntirish bosqichi.

Faoliyat: O‘qituvchi mavzuni tushuntiradi va qisqa savollar bilan o‘quvchilarga yuzlanib ketadi. Bu bosqichda so‘zlardagi qaysi tovushlar ikki harf birikmasi bilan ifodalangani so‘raladi.

Maqsad: Qoidani o‘qituvchi emas o‘quvchi kashf qilish.

Elaborate – mustahkamlash bosqichi.

Faoliyat: “Xayolot” o‘yini

3-mashqdagi topshiriqlarni bajarish uchun bolalar to‘rt guruhga bo‘linadi va har bir guruh o‘zlariga berilgan maqoldagi bo‘shliqni to‘ldirib, sharhlaydilar hamda maqolga mos rasm chizadilar. Maqsad: Bolalarni bir maqsad yo‘lida birlashishga o‘rgatish. Maqollar orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantirish.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, maqollarni ko'chiring.

Yon qo'shni - jon ...

Yaxshi qo'shni uzoq qarindoshdan ...

Qo'shning tinch - sen ...

Bir bolaga qo'shni ota-ona.

Foydalanish uchun so'zlar: tinch, qo'shni, yetti, yaxshi.

Evaluate - baholash bosqichi.

Faoliyat: Bolalarga qizil, sariq, yashil kartochkalar tarqatiladi. Bolalar bugungi mavzuni tushungan bo‘lsa yashil, biroz qiynalgan bo‘lsa sariq, yana o‘rganmoqchi bo‘lsa qizil kartochkalarga ismlarini yozib ustozlariga taqdim qilishadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Maqsad: Bolalarning o'zlashtirish jarayonini o'rganish hamda ularni motivatsion baholash.

Pedagogga tavsiyalar:

- darsni savol bilan boshlang;
- hayotiy jarayon bilan bog'lang;
- bolalar uchun izlanish muhitini yarating, tayyor yechim bermang;
- qoidani bolalar hosil qilishiga qo'yib bering, siz faqat yo'naltiruvchi bo'ling;
- topshiriqlar hayotiy bo'lsin, bolalar o'zlarini bir qolipga tushib qolgandek his qilmasliklari kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Piaget, Jean. The psychology of intelligence. – London: Routledge, 1950.
2. Vygotsky, Lev S.. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
3. Biological Sciences Curriculum Study. The BSCS 5E instructional model: Origins and effectiveness, 2006..
4. Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida: Farmon. – Toshkent, 2023.
6. Qodirov M. Yosh va pedagogic psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2010.
7. Ona tili 2-sinf I qism S. D. Kuranov. Toshkent-2023.